



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa’dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O’RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O’ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA “ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)” MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Harzullaeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O’RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O’RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o’g’li	
XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI	81
Musurmonqulov Muhammad Ural o’g’li	
TEMIR YO’L ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI	86
Baymatov Atxam Axmadaliyevich	



MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI.....	92
Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	97
Sardor Kuvandikov ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	106
Абдуллаева Зульфия Иззатовна NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI.....	113
Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI	117
G'afforov Kamronbek “O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI” AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	123
Bobojonova Zarnigor Shokirovna MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILYI KOMPONENTLARI.....	132
Muxitdinov Xudayar Suyunovich Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI	137
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH	141
Maxmudov Omon To'xtayevich RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI.....	147
Pardayev Orifjon Charshamiyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	152
Omonova Zarina Xudoymurodovna RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli “suv ta'minot servis” AJ misolida).....	160
Doniyorova M. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	164
Komilova Shaxnoza Komiljon qizi SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODEL (EVC1)	169
Xaydarova Malika Shokirjon qizi ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ	174
Нодира Илхамовна Саидахмедова Жамолiddин Ярашевич Нуриллаев THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES.....	181
Allaberganov Zakir Gaibovich Alimova Guzal Abdukhakimovna BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODEL.....	188
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	



AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	196
Xamroyev Anvar Ashurovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH	202
Ismaylov Kuvatbay Sarsenbayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	206
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH	212
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	217
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	226
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI.....	231
Nurmatov Samandar G'ayratovich	
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARI	238
Bau Long	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	244
Axrarova Shodiyxon Ja'farxon kizi	
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI	247
Djurayev Davlat Djonibekovich	
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI	250
Raxmanova Laylo Baxodirovna	
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	256
Payziyev Hamid Orziqulovich	
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	260
A.A. Ismailov	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI	266
Elmurodov Shohzod Shavkatovich	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRI

Elmurodov Shohzod Shavkatovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti
Moliya va kredit kafedrasini o'qituvchisi
E-mail: sh.elmurodov@nuu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalari va ularning iste'molchilar xulq-atvoriga ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika agentligi hamda moliyaviy inklyuzivlik bo'yicha o'tkazilgan so'rovlarning ma'lumotlari asosida raqamli to'lovlardan foydalanish dinamikasi tahlil qilindi. Tahlil natijalari elektron to'lovlardan foydalanuvchilar ulushining sezilarli darajada oshganligini, hududlar va ijtimoiy guruhlar kesimida esa muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Shuningdek, Uzcard, Humo, Click va Payme tizimlarining iste'molchilarning to'lov odatlari, moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlari hamda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining oshishiga ta'siri baholandi. Tadqiqot yakunida elektron to'lov infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va kiberxavfsizlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: elektron to'lov tizimlari, raqamli to'lovlar, iste'molchilar xulq-atvori, naqd pulsiz hisob-kitoblar, moliyaviy inklyuzivlik, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This article examines the development trends of electronic payment systems in Uzbekistan and their impact on consumer behavior. Based on data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the Statistics Agency, and surveys on financial inclusion, the study analyzes the dynamics of digital payment usage. The results of the analysis show a significant increase in the share of electronic payment users, while certain differences remain across regions and social groups. In addition, the study assesses the impact of Uzcard, Humo, Click, and Payme systems on consumers' payment habits, financial decision-making processes, and the growth of cashless transactions. As a result, practical recommendations are developed to improve electronic payment infrastructure, increase financial literacy, and strengthen cybersecurity.

Keywords: electronic payment systems, digital payments, consumer behavior, cashless transactions, financial inclusion, digital economy.

Аннотация: В данной статье исследованы тенденции развития электронных платёжных систем в Узбекистане и их влияние на поведение потребителей. В исследовании на основе данных Центрального банка Республики Узбекистан, Агентства статистики, а также опросов по финансовой доступности проанализирована динамика использования цифровых платежей. Результаты анализа показали значительный рост доли пользователей электронных платежей, а также наличие определённых различий в разрезе регионов и социальных групп. Кроме того, оценено влияние систем Uzcard, Humo, Click и Payme на платёжные привычки потребителей, процессы принятия финансовых решений и увеличение доли безналичных расчётов. В заключение исследования разработаны практические предложения, направленные на развитие инфраструктуры электронных платежей, повышение финансовой грамотности и усиление кибербезопасности.

Ключевые слова: электронные платёжные системы, цифровые платежи, поведение потребителей, безналичные расчёты, финансовая инклюзивность, цифровая экономика.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi moliyaviy xizmatlar bozorining transformatsiyasiga olib kelib, elektron to'lov tizimlarini iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylantirmoqda. Bugungi kunda elektron to'lov vositalari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmining ortishi nafaqat moliyaviy xizmatlar sifati va qulayligini oshirishga, balki iqtisodiyotning shaffofligini ta'minlash,



moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi iste'molchilarning xarid qilish odatlari, mablag'lardan foydalanish usullari va moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat elektron to'lov tizimlarining iste'molchilar xulq-atvoriga ta'sirini ilmiy jihatdan tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda bank kartalari infratuzilmasining kengayishi, mobil ilovalar asosidagi to'lov platformalarining ommalashuvi, QR-kod va elektron hamyon texnologiyalarining joriy etilishi natijasida naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, Click, Payme, Apelsin, Uzum Bank, Uzcard va Humo kabi elektron to'lov xizmatlari aholining kundalik moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishda muhim vositaga aylandi. Natijada iste'molchilarning to'lov odatlari, xarid qilish jarayoni va moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi iste'molchilarga vaqt va xarajatlarni tejash, xizmatlardan masofadan turib foydalanish hamda moliyaviy operatsiyalarni tezkor amalga oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq mazkur tizimlarning keng qo'llanilishi iste'molchilarning xarid qilish faolligi, impulsiv xaridlar soni, tejash va sarflash odatlarida ham muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli elektron to'lov tizimlari va iste'molchilar xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"¹gi Qonunida to'lov tizimlari faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda PF-246-son Farmonida "naqdsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish, zamonaviy to'lov xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish"² ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi 117-son qarorida "elektron to'lov tizimlari xizmatlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish va aholining raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish"³ga qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatda elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy asoslar shakllanayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi va ularning iste'molchilar xulq-atvoriga ta'siri zamonaviy iqtisodiyot va fintech sohasining eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning moliyaviy xizmatlarga kirib kelishi natijasida naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ortib, iste'molchilarning xarid qilish odatlari, moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlari hamda mablag'larni boshqarish usullarida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu sababli mazkur masala xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida keng tadqiq etilgan. Raqamli to'lov tizimlarining qabul qilinishi va ulardan foydalanish omillarini o'rgangan Chandning ta'kidlashicha, "iste'molchilar uchun tizimning foydaliligi va undan foydalanishning qulayligi elektron to'lov vositalaridan muntazam foydalanishni shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi"⁴. Muallifning fikricha, foydalanuvchi texnologiyadan qanchalik ko'p amaliy manfaat olsa va undan foydalanish jarayoni qanchalik sodda bo'lsa, mazkur texnologiyaning kundalik hayotga integratsiyalashuvi shunchalik tez amalga oshadi. Shu bilan birga, Chand kiberfiribgarlik xavfi va texnologik nosozliklar elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchni pasaytiruvchi eng muhim to'siqlar sifatida namoyon bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Raqamli to'lovlarning iste'molchilar xarajatlariga psixologik ta'sirini o'rgangan tadqiqotchilar "naqd pul bilan to'lashda yuzaga keladigan psixologik xarajat hissi elektron va mobil to'lovlarda sezilarli darajada kamayadi"⁵, degan xulosaga kelganlar. Ularning fikricha, xaridor pul sarflash jarayonini kamroq his qilgani sababli xarajatlardan ustidan nazorat ham nisbatan susayadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda "keshbek, bonus va chegirma dasturlari iste'molchilarning impulsiv xarid qilish ehtimolini oshiradi"⁶ deb qayd etilgan. Iste'molchilarning raqamli to'lovlarga munosabatida demografik omillarning ahamiyatini o'rgangan olimlar "yosh foydalanuvchilar innovatsion moliyaviy texnologiyalarni qabul qilishga ko'proq moyil bo'lib, ular uchun qulaylik va tezkorlik asosiy

1 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'QR-578-son Qonuni

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son Farmoni

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi "Elektron to'lov tizimlari xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 117-son qarori

4 Chand, N. Impact of Digital Payment on Consumer Behaviour in Nepal. – Nepal: UAS, International Business Thesis, 2025. – P. 32.

5 The Impact of Digital Payment Implementation on Consumer Behavior and Impulse Buying // Social Science Research Network (SSRN). – 2026.

6 The Impact of Digital Payment Implementation on Consumer Behavior and Impulse Buying // Social Science Research Network (SSRN). – 2026



omil hisoblanadi⁷, deb ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, tadqiqotchilar katta yoshdagi iste'molchilar uchun tizim xavfsizligi va ishonchligi qulaylik omilidan ko'ra muhimroq ahamiyatga ega, degan xulosani ilgari suradilar. Bundan tashqari, ijtimoiy muhit va hukumat tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari raqamli to'lov xizmatlarining ommalashuv sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblanadi.

Post-pandemiya davrida raqamli to'lov tizimlarining rivojlanish tendensiyalarini o'rgangan Rrustemi va hammualliflarning fikricha, "raqamli to'lov vositalari shunchaki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish vositasi emas, balki iste'molchilar xarajatlarini boshqarish va moliyaviy intizomni shakllantirish mexanizmiga ham aylanmoqda"⁸. Mualliflar raqamli platformalarning iqtisodiy hayotdagi roli tobora kengayib borayotganini ta'kidlaydilar. Wong va hammualliflar esa "tranzaksiyalar tarixining doimiy qayd etilishi va xarajatlarning vizual monitoringi iste'molchilarda moliyaviy ong va mas'uliyat hissining kuchayishiga xizmat qiladi"⁹, deb hisoblaydilar.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida elektron to'lov tizimlarining makroiqtisodiy ahamiyati va moliyaviy inklyuzivlikka ta'siri keng yoritilgan. Uzakovning ta'kidlashicha, "raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishining kengayishi iqtisodiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishiga xizmat qilmoqda"¹⁰. Muallif elektron to'lov tizimlari iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini oshirish va naqd pul muomalasini qisqartirishda muhim rol o'ynashini qayd etadi. Mahalliy tadqiqotlarda Payme, Click, Uzcard va Humo tizimlarining kengayishi natijasida aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada oshgani ta'kidlanadi. Tadqiqotchilar "raqamli to'lov vositalarining ommalashuvi bank xizmatlaridan foydalanish darajasini kengaytirib, moliyaviy inklyuzivlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda"¹¹, deb hisoblaydilar. Shuningdek, kartadan kartaga o'tkazmalar, kommunal va davlat xizmatlari uchun masofaviy to'lovlar aholining kundalik moliyaviy odatiga aylangan, degan xulosalar ham ilgari surilgan.

Elektron tijorat va raqamli to'lov tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan Zokirovning qayd etishicha, "onlayn savdo hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, iste'molchilarning muayyan qismi hali ham mahsulotni qabul qilgandan keyin to'lash usulini afzal ko'radi"¹². Muallifning fikricha, onlayn tranzaksiyalar xavfsizligiga bo'lgan ishonch darajasi elektron to'lovlardan foydalanish faolligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kiberxavfsizlik va raqamli iqtisodiyot muammolarini tadqiq qilgan Imomovanning ta'kidlashicha, "raqamli to'lov tizimlari rivojlanishi bilan bir qatorda fishing, ijtimoiy injeneriya va boshqa kiberfiribgarlik turlarining ko'payishi iste'molchilar uchun yangi risklarni yuzaga keltirmoqda"¹³. Muallifning fikricha, foydalanuvchilar elektron to'lov platformasini tanlashda uning himoyalanganlik darajasi va brend obro'siga alohida e'tibor qaratadilar.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda elektron to'lov tizimlarining iste'molchilar psixologiyasi, xarid qilish odatlari va moliyaviy qarorlariga ta'siri chuqur o'rganilgan bo'lsa, mahalliy tadqiqotlarda asosan raqamli to'lovlarning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy inklyuzivlik va infratuzilmaviy rivojlanish masalalariga e'tibor qaratilgan. Biroq O'zbekiston sharoitida elektron to'lov tizimlarining iste'molchilarning xarid qilish qarorlariga, keshbek va bonus dasturlarining xarid faolligiga ta'siri hamda raqamli moliyaviy xizmatlarning kundalik iste'mol xulq-atvorini qay darajada o'zgartirayotganligi yetarlicha empirik tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi va ularning iste'molchilar xulq-atvoriga ta'sirini baholash maqsadida statistik, qiyosiy va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika agentligi hamda Uzcard, Humo, Click va Payme to'lov tizimlariga oid ochiq statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida elektron to'lov operatsiyalari hajmi, foydalanuvchilar soni, bank kartalari muomalasi va naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushidagi o'zgarishlar statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, elektron to'lov tizimlarining rivojlanish dinamikasi yillar kesimida o'rganilib, asosiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari baholandi. Bundan tashqari, Uzcard, Humo, Click va Payme tizimlarining faoliyati o'zaro qiyosiy tahlil qilinib, ularning iste'molchilar uchun qulayliklari, foydalanish ko'lamini hamda elektron to'lov bozoridagi o'rni baholandi.

7 Systematic Literature Review on Digital Payment Adoption and Consumer Behaviour. – 2025. – P. 14.

8 Rrustemi, J., et al. Consumer Behaviour and Digital Payments in the Post-COVID Era: Ecosystem-Level Interventions // Competitiveness Review. – 2024. – Vol. 36. – P. 9.

9 Wong, A., et al. Cognitive and Affective Pathways to Sustainable Consumption via Digital Transactions // Journal of Consumer Marketing. – 2023. – P. 15.

10 Uzakov, A. Raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich // O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari. – 2025. – №4. – B. 56.

11 Fintech xizmatlarining (Click, Payme, Humo, Uzcard) aholining kundalik moliyaviy operatsiyalariga ta'siri // Iqtisodiyot va Zamonaviy Texnologiya Jurnal. – 2026. – №3873. – B. 22.

12 Zokirov, A. Development of E-commerce and Its Impact on Society in Uzbekistan // Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, Issue 12. – P. 1128.


13 Imomova, J.Yo. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizligimizni ta'minlash // Iqtisodiyot va Innovatsiyalar Jurnal. – 2026. – B. 15.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi so'nggi yillarda sezilarli ravishda oshgan. Xususan, 2021-yilda raqamli to'lovlardan foydalangan yoki qabul qilgan respondentlar ulushi 39 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 72 foizga yetgan. Bu esa to'rt yil davomida raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi 33 foiz punktga oshganligini ko'rsatadi.

Mazkur o'sish mamlakatda elektron to'lov infratuzilmasining jadal rivojlanayotgani bilan izohlanadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, muomaladagi bank kartalari soni 71 million donadan oshgan, terminal to'lovlari hajmi esa yiliga 460,2 trillion so'mga yetgan. Shu bilan birga, bankomatlar, POS-terminallar va mobil bank xizmatlari sonining ortishi elektron to'lovlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan. Natijada iste'molchilar kundalik moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda naqd puldan ko'ra elektron to'lov vositalarini afzal ko'ra boshlagan. Adabiyotlar sharhida qayd etilganidek, raqamli to'lovlarning qulayligi, tezkorligi va foydalanish osonligi iste'molchilarning ushbu texnologiyalarni qabul qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli elektron to'lovlar nafaqat moliyaviy operatsiyalarni soddalashtiruvchi vosita, balki iste'molchilarning moliyaviy xulq-atvorini o'zgartiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



1-rasm. Hududlar kesimida raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi (%)¹⁴

Rasm ma'lumotlari hududlar o'rtasida raqamli to'lovlardan foydalanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etilgan bo'lib, respondentlarning 84 foizi raqamli to'lovlardan foydalanishini bildirgan. Janubiy hududlarda esa bu ko'rsatkich 56 foizni tashkil etadi. Ushbu farq internet infratuzilmasi, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va aholining raqamli savodxonligi bilan izohlanadi. Shuningdek, shahar hududlarida raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi qishloq joylarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatilmoqda. Bu holat elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishda hududlararo nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval.
Ijtimoiy guruhlar kesimida raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi (%)¹⁵

Respondent guruhi	Ulushi (%)
Rasmiy band aholi	93
Talabalar	84
Pensionerlar	71
O'zini o'zi band qilganlar	67
Ishsizlar	54

14 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ADB ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

15 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ADB ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Jadval natijalari raqamli to'lovlardan foydalanishda ijtimoiy maqom muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda. Eng yuqori ko'rsatkich rasmiy band aholida (93%) va talabalarda (84%) kuzatilgan. Bu guruhlar internet va mobil texnologiyalardan faol foydalanishi bilan ajralib turadi. Pensionerlar orasida ham raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi nisbatan yuqori (71%) bo'lsa-da, ishsizlar va o'zini o'zi band qilgan aholida ko'rsatkichlar pastroq. Mazkur natijalar adabiyotlar sharhida keltirilgan demografik omillar va raqamli savodxonlikning elektron to'lovlarni qabul qilishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

2-rasm. O'zbekistonda eng ko'p foydalaniladigan raqamli to'lov usullari (%)



2-rasm. O'zbekistonda eng ko'p foydalaniladigan raqamli to'lov usullari (%)¹⁶

Rasm natijalari O'zbekistonda an'anaviy karta to'lovlari hanuzgacha asosiy to'lov usuli bo'lib qolayotganini ko'rsatmoqda. Respondentlarning 60 foizi POS-terminallar orqali to'lovlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, QR-kod texnologiyalarining 39 foizlik ulushga erishgani raqamli to'lovlarning yangi shakllari tez sur'atlarda rivojlanayotganidan dalolat beradi. Kartadan kartaga o'tkazmalar va mobil hamyonlardan foydalanish ham kundalik moliyaviy operatsiyalarning muhim qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayonda Click va Payme kabi ilovalarning ommalashuvi muhim rol o'ynamoqda.

2-jadval
Elektron to'lov tizimlarining iste'molchilar xulq-atvoriga ta'siri¹⁷

Tizim	Asosiy funksiyasi	Iste'molchilar xulq-atvoriga ta'siri
Uzcard	To'lov infratuzilmasi	Naqd pulga ehtiyojni kamaytirdi
Humo	Milliy protsessing tizimi	Kontaktsiz to'lov madaniyatini shakllantirdi
Click	Super-app va P2P o'tkazmalar	Masofaviy moliyaviy boshqaruvni rivojlantirdi
Payme	To'lov va monitoring xizmati	Xarajatlarni nazorat qilish imkoniyatini oshirdi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda elektron to'lov tizimlari nafaqat to'lovlarni amalga oshirish vositasi, balki iste'molchilarning moliyaviy xulq-atvorini shakllantiruvchi omilga ham aylanmoqda. Uzcard va Humo tizimlari naqd pulsiz hisob-kitoblar infratuzilmasini yaratgan bo'lsa, Click va Payme kabi platformalar iste'molchilarning kundalik moliyaviy faoliyatini raqamlashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, kartadan kartaga o'tkazmalar, kommunal xizmatlar uchun onlayn to'lovlar va xarajatlar monitoringi aholining moliyaviy qaror qabul qilish jarayonini soddalashtirmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi iste'molchilarning to'lov odatlarini tubdan o'zgartirayotganini ko'rsatadi. Raqamli to'lovlardan foydalanish darajasining ortishi, mobil ilovalarning keng tarqalishi va naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushining ko'payishi moliyaviy xizmatlarning yanada qulay va samarali shakllarini yuzaga keltirmoqda. Biroq hududlararo tafovutlar hamda ayrim iste'molchilarning naqd pulga bo'lgan an'anaviy moyilligi elektron to'lov tizimlarini yanada ommalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

¹⁶ Markaziy bank va ADB ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁷ Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda elektron to'lov tizimlari so'nggi yillarda jadal rivojlanib, aholining moliyaviy xulq-atvorida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, 2021–2025-yillar davomida raqamli to'lovlardan foydalanuvchilar ulushining 39 foizdan 72 foizgacha oshishi mamlakatda raqamli moliyaviy xizmatlarning ommalashib borayotganidan dalolat beradi. Tadqiqot davomida Toshkent shahri va urbanizatsiyalashgan hududlarda raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi yuqoriligi, qishloq va ayrim chekka hududlarda esa nisbatan pastligi aniqlandi. Shuningdek, rasmiy band aholi va talabalar elektron to'lovlardan eng faol foydalanuvchilar hisoblanishi, elektron to'lovlarning asosiy shakli sifatida esa POS-terminal orqali karta to'lovlari yetakchilik qilishi kuzatildi. Uzcard va Humo tizimlari milliy to'lov infratuzilmasining asosini yaratgan bo'lsa, Click va Payme kabi platformalar masofaviy moliyaviy boshqaruv, kartadan kartaga o'tkazmalar va kundalik to'lov operatsiyalarini amalga oshirishda muhim vositaga aylangan. Natijada elektron to'lov tizimlari nafaqat to'lovlarni amalga oshirish mexanizmi, balki iste'molchilarning xarid qilish odatlari va moliyaviy qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy institut sifatida shakllanmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, birinchi navbatda, qishloq va chekka hududlarda raqamli to'lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish, internet qamrovini kengaytirish hamda aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchni oshirish uchun kiberxavfsizlik mexanizmlarini takomillashtirish, foydalanuvchilarni fishing va boshqa kiberfiribgarliklardan himoya qilish bo'yicha profilaktik tadbirlarni kengaytirish zarur. Uchinchidan, QR-kod asosidagi to'lovlar, mobil hamyonlar va boshqa innovatsion to'lov vositalarini qo'llab-quvvatlash orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini yanada oshirish mumkin. Bundan tashqari, elektron to'lov tizimlari operatorlari tomonidan keshbek, bonus va sodiqlik dasturlarini takomillashtirish iste'molchilarning raqamli xizmatlardan foydalanish faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga, moliyaviy inklyuzivlik darajasining oshishiga hamda zamonaviy to'lov madaniyatining yanada mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RBQ–578-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4575786>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF–246-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 26-fevraldagi "Elektron to'lov tizimlari xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 117-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7416182>
4. Chand, N. Impact of Digital Payment on Consumer Behaviour in Nepal: Bachelor's Thesis. Degree Programme in International Business. – LAB University of Applied Sciences, 2025.
5. Rrustemi, J. et al. Consumer Behaviour and Digital Payments in the Post-COVID Era: Ecosystem-Level Interventions // Competitiveness Review. – 2026. – Vol. 36. – DOI: 10.1108/CR-02-2026-0098.
6. Wong, A. et al. Cognitive and Affective Pathways to Sustainable Consumption via Digital Transactions // Journal of Consumer Marketing. – 2023.
7. The Impact of Digital Payment Implementation on Consumer Behavior and Impulse Buying // SSRN Electronic Journal. – 2026.
8. Systematic Literature Review on Digital Payment Adoption and Consumer Behaviour. – 2025.
9. Zokirov, A. Development of E-commerce and Its Impact on Society in Uzbekistan // Journal of Academic Research. – 2024. – Vol. 4, Issue 12. – P. 1126–1132.
10. Imomova, J.Yo. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizligimizni ta'minlash // Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. – 2026.
11. Uzakov, U.A. Raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich // O'zbekiston Milliy universiteti xabarleri. – 2025.
12. Fintech xizmatlarining aholining kundalik moliyaviy operatsiyalariga ta'siri: Click, Payme, Humo va Uzcard misolida // Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalar jurnali. – 2026. – №3873.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To'lov tizimlari bo'yicha statistik ma'lumotlar va ochiq ma'lumotlar bazasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025–2026.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Raqamli iqtisodiyot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'rsatkichlari. – Toshkent: Statistika agentligi, 2025–2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>